

“**ECOLOGY — OUR COMMON HOME**”

*By Abdurahimova Rayhona,  
a 6th grade student of school  
No. 1, To'raqo'rg'on district*

**Annotation.** This article, written from the perspective of a 6th grade student from Uzbekistan, explores the urgent ecological problems facing our planet today. It discusses the causes and consequences of environmental pollution, deforestation, water contamination, plastic waste, and climate change. By highlighting the importance of environmental awareness and individual responsibility, the article underscores how every person, especially the younger generation, can contribute to protecting nature and ensuring a healthy future for Uzbekistan and the world.

**Key words:** ecology, environment, pollution, deforestation, climate change, plastic waste, water contamination, responsibility, nature, conservation, health, future, generation, Uzbekistan, awareness.

“**EKOLOGIYA — UMUMIY UYIMIZ**”

*To'raqo'rg'on tumani 1-umumiy o'rta  
ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi  
Abdurahimova Rayhona Ergashboy qizi  
uning ingliz tili o'qituvchisi  
Mannobov Abdumalik Mansurjon o'g'li*

Izoh. O'zbekistonlik 6-sinf o'quvchisi nuqtai nazaridan yozilgan ushbu maqola bugungi kunda sayyoramiz duch kelayotgan ekologik muammolarni o'rganadi. Unda atrof-muhitning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, suv muammolari, plastik chiqindilar va iqlim o'zgarishining sabab va oqibatlarini muhokama qilinadi. Maqolada ekologik tarbiyaning ahamiyati va har bir insonning tabiatni muhofaza qilishdagi mas'uliyati ta'kidlanadi. Yoshlar bugungi ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, atrof-muhit, ifloslanish, o'rmon kesish, iqlim o'zgarishi, plastik chiqindilar, suv ifloslanishi, mas'uliyat, tabiat, muhofaza, salomatlik, kelajak, avlod, O'zbekiston, ekologik tarbiya.

Ekologiya bugungi kunda dunyo miqyosida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tabiat insoniyat uchun eng katta boylikdir. Insonlar yashashi, sog'lom hayot kechirishi va kelajak avlodlarning farovonligi, tabiatning tozaligi va

muvozanatiga bog'liq. Afsuski, so'ngi yillarda tabiatga bo'lgan e'tiborsizlik natijasida ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishi inson salomatligiga katta zarar yetkazadi. Zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlar havoni ifloslantirmoqda. Avtomobillar sonining ko'payishi ham havo sifatini buzilishiga sabab bo'lmoqda. Natijada odamlar nafas olayotgan havo sifati yomonlashmoqda. Bu esa turli kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Ekologik muammolarning yana bir muhim sababi — o'rmonlarning kesilishidir. Daraxtlar Yerning "YASHIL O'PKASI" hisoblanadi. Ular havoni tozalaydi, kislorod chiqaradi va tabiat muvozanatini saqlaydi. Ammo ko'plab joylarda yangi uylar, yo'llar yoki zavodlar qurish uchun daraxtlar kesib tashlanmoqda. Bu esa tabiatga katta zarar yetkazadi.

Suv ifloslanishi ham ekologik muammolardan biridir. Daryolar, ko'llar va dengizlarga tashlanayotgan chiqindilar suvdagi hayotga zarar yetkazadi. Ba'zi zavodlar o'z chiqindilarini to'g'ridan-to'g'ri suvga tashlaydi. Bundan tashqari, odamlar ham plastik va boshqa chiqindilarni suvga tashlash orqali suvni ifloslantirmoqda. Natijada, baliqlar va boshqa suv jonzoatlari nobud bo'lmoqda.

Plastik chiqindilar ham ekologiya uchun katta muammo hisoblanadi. Plastik juda sekin parchalanadi. Ba'zan u yuzlab yillar davomida tabiatda saqlanib qoladi. Natijada, tuproq va suv zaharlanadi. Hayvonlar esa plastikni ovqat deb o'ylab yeyishi mumkin va bu ularning o'limiga sabab bo'ladi.

Iqlim o'zgarishi ham ekologik muammolarning eng jiddiylaridan biridir. Atmosferaga chiqayotgan zaharli gazlar Yerning haroratini oshirmoqda. Oqibatda muzliklar erimoqda, dengiz sathi ko'tarilmoqda va turli tabiiy ofatlar ko'paymoqda. Qurg'oqchilik, kuchli bo'ronlar va o'rmon yong'inlari ham iqlim o'zgarishining natijasi hisoblanadi.

Ekologik muammolarni hal qilish uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi kerak. Masalan, daraxt ekish, chiqindilarni to'g'ri tashlash, plastikdan kam foydalanish va tabiatni asrash kabi oddiy ishlar ham katta ahamiyatga ega. Agar har bir odam tabiatga e'tibor bilan qarasa, ekologik muammolarni kamaytirishi mumkin.

Bolalar va yoshlar ekologiya haqida ko'proq bilimga ega bo'lishi ham juda muhim. Maktablarda ekologik tarbiya berilishi, tabiatni asrash haqida tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Chunki bugungi yoshlar kelajakda tabiatni asraydigan avlod bo'lib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologiya insoniyat kelajagi bilan chambarchas bog'liq. Agar biz bugun tabiatni asrasak, kelajak avlodlar ham sog'lom va go'zal muhitda yashaydi. Tabiat — bu bizning yagona uyimiz. Uni asrash esa har bir insonning muqaddas burchidir.

#### References:

1. Begmatov, A. va boshqalar. O‘zbekistonda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 45-67 betlar.
2. UNEP. Global Environment Outlook — GEO-6: Healthy Planet, Healthy People. Nairobi, 2019.
3. Mirziyoyev, Sh. Yashil iqtisodiyot — kelajak yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 12-25 betlar.
4. Atkinson, G. Measuring Sustainable Development. Oxford University Press, 2000. 33-41 pp.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 1992.
6. Yuldasheva, D. B. Organization of terms as a factor for the improvement of economic sciences [Article]. Euroasian Research Bulletin, 2021. International scientific journal, 2.
7. Yuldasheva D.B. Iqtisodiy munosabatlarda terminologiyaning ahamiyati / Ilm-fan va ta‘lim ilmiy jurnali 2181-4325 15.03.2024. N2 3(18) 88-91 betlar.
8. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).